

2023-yil – Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili

# IJDODIY PARVOZ

2023-yil noyabr № 11 (126) ✓dsmi.uz



nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi\_uz

Abdulla ORIPOV,  
O'zbekiston Qahramoni,  
O'zbekiston va  
Qoraqalpog'iston xalq shoiri

## O'zbekiston bayrog'i

Har qanday lashkarning ham  
O'z tug'i, yalovi bor,  
Sen qaysi sultanatdan,  
Sen qaysi davlatdan kam.  
Qo'rg'onlar qatorida  
Bir qo'rg'onsan ustuvor,  
Vallamat, tug'dor yurtim,  
Muhtasham Respublikam.

O'layman, ha, olamda  
Nisbiy erur ko'p holat,  
Zamona g'alviridan  
Har narsa o'taverar.  
Tarix uchun va lekin  
Kim ham bergay kafolat,  
Yakka inson bir yo'lchi:  
Kelaru ketaberar.

Qadim-qadim zamonda  
Yunonlik haykaltarosh,  
Bir san'at yaratibdi,  
Maqsadi - bir burda non.  
Haykal esa asrlar  
Sinoviga bermish dosh,  
Bugun uni ko'klarga  
Ko'tarar butkul jahon.

Ko'zni kattaroq ochib  
Boqsang bu muammoga,  
Alam qulgulik qadar  
Kam yashar inson zoti,  
Faqatgina xalq sohib  
Bardavom bu dunyoga,  
Asragay har kas nomin  
Faqat xalqning hayoti.

Sanasang hodisot mo'l  
O'zbekning tarixida,  
Har biriga bir noma  
Yoki doston bitgulik.  
Ne zotlar oqmagan bu  
Asrlar arig'ida,  
Har biri bitta xalqning  
G'ururiga yetgulik.

Barchaga ayon erur  
Men aytgan ushbu gaplar,  
To hanuz asablarni  
Ezg'ilar bu shum o'tmish.  
Moziyga o'qtin-o'qtin  
Sochsak hamki g'azablar,  
Lekin aytning, o'zbekning  
Qo'lidan kim ham tutmish?

Bir kuni yovqur shoir  
Ya'ni Turdi Farog'iy,  
Bo'ltak bo'lgan bu xalqqa  
Birlash deb qildi xitob.  
Bejavob qolaberdi  
Uning dardli so'rog'i,  
O'sha-o'sha zamin kar,  
O'sha-o'sha gung oftob.

Bugun zimdan nazar sol  
Sen mana bu bayroqqa,  
Mayliga bir daqiga  
Unutgin turfa kekni.  
Shu bayroq nomimizni  
Eltid yiroq-yiroqqa,  
Shu bayroq birlashtirar  
Qayda bo'lsa o'zbekni.



18 noyabr –  
O'zbekiston  
Respublikasining  
Davlat bayrog'i  
qabul qilingan kun

## IFTIXORIMIZ TMSOLI



Eldor SHERMANOV,  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat  
Instituti rektori v.b.,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD)

Dunyodagi deyarli barcha mustaqil  
davlatlar o'z bayrog'iga ega. Davlatimiz  
bayrog'i ham millatimizning birligi,  
mustaqilligimiz timsoli sifatida  
xalqimizning orzu-istiklarini, umidlarini,  
kelajakka bo'lgan ishonchini o'zida ifoda  
etadi. Konstitutsiyamizning 5-moddasida:  
“O'zbekiston Respublikasi qonun  
bilan tasdiqlanadigan davlat ramzlari:  
bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega”, deb  
ta'kidlangan bo'lib, ushbu moddaning  
“Davlat suvereniteti” deb nomlangan  
bobda keltirilishi davlat ramzlarining  
mamlakatimiz ichki va tashqi siyosatida  
qanchalik muhim o'rin tutishini  
anglatadi.

Mamlakat va jamiyat taraqqiyoti hamda uning  
barqarorligida davlat ramzlarining alohida o'rni  
bor. Shu ma'noda milliy bayrog'imiz davlat va  
jamiyat hayoti, uning jahon hamjamiatidagi o'rni  
hamda rolini ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega  
bo'lib, har birimiz uchun iftixon timsoli hisoblanadi.  
Tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, Amir Temur  
bobomizga piri Sayid Baraka Amir Husaynga qarshi  
jangga kirishdan oldin bayroq va nog'ora taqdim  
etgan. Sohibqiron hokimiyat tepasiga kelganidan  
keyin ham davlat ramzlariga niyoyatda katta  
ahamiyat bergen, ayniqsa, davlatning bayrog'iga.  
Jang vaqtida agar bitta jangchi tirik qolsa ham, u  
mamlakat bayrog'ini baland tutsin, deya farmon  
bergan.

Bugungi sonda  
**XUSHMUOMALALIK ODOI – inson ziynati**

Xushmuomalalik nafaqat  
so'zimiz, kiyinish, qadam  
tashlab yurishimiz, birovning  
og'irini yengil, mushkulini oson  
qilishimiz ham inson ko'rki,  
uning qandayligini anglatib  
turuvchi bir hislatidir.

3

**Har bir ro'llini, o'z  
hayotini butkul unutib  
o'ynar edilar**

Toshkent shahridagi  
“Zarqaynar” mahallasiga  
yashab ijod etgan Hoshim  
Arslonovning xotirasini yod  
etish maqsadida aktyorning  
umr yo'l doshi Mavluda  
ARSLONOVA ni suhabatga  
chorlaymiz.

5

**Kino SAN'ATMI  
yoki ERMAK?**

O'zimizning filmlarni qo'ya  
turaylik... Teleekranlarga berila-  
yotgan tarjima kinolar-chi? Bu  
filmlarni ommaga ko'rsatib,  
nimalarni targ'ib qilishmoqda?  
Xalqning internetda har xil  
bo'limg'ur: “Hi barby!” (Salom  
barby) va shunga o'xshash  
masxaraomuz videolarni qilib,  
tanilishiga ham balki shu chet  
el filmlari sabab bo'lmayaptimi?  
Ba'zi bir o'z nafsiга erk bergen  
insonlar tufayli san'at sohasi  
sanoat va ermakka aylanib  
qolmadimi?

7

**TIRBAND  
YO'NALISHLARDA...**

(yohud milliy mentaletetimizga  
zid voqealar hususida)

Yo'lovchi tashuvchi  
transportlarning haddan  
ziyod, o'z sig'imidan ham ortiq  
yo'lovchi olishi bilan bog'liq  
muammo deb o'layman.  
Soat ertalabki 7:30 dan, 9:00  
gacha chamasi hamma ishga,  
o'qishga kechikmaslik uchun  
shoshadi. Men ham o'sha  
shoshilganlarning biriman.

8

Yoshing o'tib  
qolganda ilm  
olishdan uyalma.  
Zero, hechdan ko'ra  
kech ilm olmoqlik  
afzaldir.

EZOP

Umring mezonini  
shunday olki, go'yoki  
yashashingga ham  
oz, ham ko'p fursat  
qolgan bo'lsin.

PRIYENALIK BIANT

Qanday odamni  
baxtli sanamoq  
mumkin? O'tkir  
aql va teran,  
halol fikrlar egasi  
baxtiyordir.

SUQRAT

Donishmandlik  
ibtidosi:  
fikrlashni  
o'rganish,  
vaysaqilikka  
barham berish.

PIFAGOR

# IFTIXORIMIZ TIMSOLI

**1** Davlat ramzlari hamisha muqaddas hisoblangan. Chunki u xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida mujassam etgan Vatanning yorqin timsolidir. O'zbekistonimiz istiqqlola erishgach, eng avvalo, davlatimiz ramzlari tasdiqlandi. 1991-yil 18-noyabr xalqimiz yodida o'chmas va qutlug' sanalardan biri bo'lib qoldi. Shu kuni "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning 2-3-moddalarida bayrog'imiz O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzi ekanligi, xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining timsoli bo'lishi belgilab qo'yildi.

2010-yilning 24-dekabrida "O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari haqidagi ayrim qonun hujjaligiga va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni imzolandi. Ushbu qonunga binoan, "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi qonunlar va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga qator o'zgartish hamda qo'shimchalar kiritildi. "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonunning 4-moddasi to'rtinch qismidagi "Yangi oy va yulduzlarining" degan so'zlar "Oq rangli yangi oy va o'n ikkita oq rangli besh qirrali yulduzlarining" degan so'zlar bilan almashtirildi. Bu esa bayrog'imiz tasviri haqidagi tasavvurni yanada aniqlashtirdi. Ma'lumki, yangi oy — mustaqilimizni, o'n ikki yulduz beg'uborlik, donishmandlik ifodasi sifatida muqaddas Vatanimizda yashayotgan insonlar hamisha komillikka intilishi va saodatga eltvychi yo'lni tanlashini bildiradi.

Davlat bayrog'inining tasviri tushirilgan belgilar O'zbekiston Respublikasi Fuqaro havo kemalari davlat reestri yoki O'zbekiston Respublikasi Davlat havo kemalari – davlat reestriga kiritilgan havo kemalariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Aviatsiya ma'muriyati hisobida turuvchi eksperimental havo kemalariga, qonun hujjalarda belgilangan hollarda avtomototransport vositalari va ular tirkamalarining davlat ro'yxatidan o'tkazish raqam belgilariga hamda O'zbekiston Respublikasining asosiy chegara belgisiga qo'yildi. Davlat bayrog'i tasviri tushirilgan belgilardan O'zbekiston Respublikasiga tegishlilikni belgilash maqsadida predmetlar, o'quv-tarbiya jarayoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotlarining elementi sifatida foydalaniishi mumkin. Ta'kidlash lozimki, bayrog'imiz respublikamiz dunyoda xalqaro hamjamiyatning tenglar

ichra teng a'zosi ekanligini anglatadi va o'zida milliy-madaniy an'analarimiz mujassamlashtiradi. U bizning hech kimdan kam emasligimiz hamda aslo kam bo'lmasligimizni yaqqol namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bayrog'imizni e'zozlash fuqarolarda o'zining qadr-qimmatiga, o'z mamlakatiga va shaxsiga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Bugun milliy bayrog'imiz davlat idora hamda muassasalarini, o'quv yurtlari, O'zbekiston a'zo bo'lgan xalqaro tashkilotlari, chet ellardagi elchixona va doimiy vakolatxonalarimiz peshtoqida hilpirab turibdi. Turli bayram tantanalari, mamlakatimiz a'zolari qatnashayotgan xalqaro miqyosdagi siyosiy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, nufuzli sport musobaqalarida ham bayrog'imiz Vatanimizning sha'ni, xalqimizning g'ururini yorqin aks ettirmoqda. Bayroq o'zida davlatning tarixiy qiyofasini, urfatlari, madaniyatni, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishini ham majoziy ravishda mujassamlashtiradi. Bugungi kunda sportchilarimiz nufuzli musobaqalarda ishtirot etib, Vatanimiz bayrog'ini baland ko'targanidan har birimizning qalbimiz faxr-iftixon tuyg'ulariga to'ladi. Nafaqat sport sohasida, shuningdek, ilm-u ma'rifatda ham yurtimizning shon-sharafini olamga yoyayotgan, bayrog'imiz yuksaklarda hilpirashiga o'z hissasini qo'shib kelayotgan fidoyi insonlarni ko'rib, ularga havas qilamiz. Aslini olganda, shu zaminda yashayotgan har bir fuqaro davlatimiz ramzlariga nisbatan hurmat-ehtiromda bo'lishi, Vatanimiz ravnaqiga o'zining hissasini qo'shishga intilib yashashi lozim. Har birimiz mana shu mas'uliyatni chuqur anglasak va harakat qilsak, bayrog'imiz yanada yuksaklarda hilpirayveradi.

Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng dunyoda mavjud bo'lgan 200 dan ortiq davlatlar qatorida O'zbekiston ham mustaqillik, hurlik, tinchlik va barqarorlik timsoli bo'lgan o'z davlat ramzlariga ega bo'lib, ularni tartibga soluvchi mustahkam qonunchilik bazasini yaratdi.

"O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonunning 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek, O'zbekistonda turgan boshqa shaxslar O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'ini hurmat qilishlari shart" ekanligi hamda "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi", degan fikrlar tegishli normalar bilan o'z ifodasini topgan.

Niyatimiz shuki, davlatimiz bayrog'i tinch va osoyishta, ozod hamda erkin hayotimiz, yorug' kelajagimizga bo'lgan ishonchimiz timsoli sifatida doimo baland hilpirayversin.

Har bir xalq, millat uchun o'z vatanining ramzlarini muqaddas hisoblanadi. Boisi, ularda o'sha xalqning shonli o'tmishi va buyuk kelajagi, asriy an'ana va urf-odatlari o'z aksini topadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "Milliy timsollar va ramzlarining har biri milliy g'ururimizni yuksaltirishga xizmat qiladi. Ularning har biri katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasidir", – deya ta'kidlagan edilar. Haqiqatan ham hayotimizda ramz va timsollarning o'rni katta. Bunga tarix shohid.

## BAYROG'IMIZ – faxrimiz, g'ururimiz



**Baxtiyor SAMIYEV,**  
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Vatan ramzlari shu qadar ulug' va muqaddas sanalganki, uning uchun odamlar jonlarini fido qilganlar. Zero, milliy ramzlar, or-nomus, shon-sharaf sanalgan. Ana shunday ramzlardan biri bu davlat bayrog'idir.

Shak-shubhasizjonajon O'zbekistonimiz bayrog'i dunyodagi eng chiroli va ko'rkm bayroqlardan biridir. U bizning hech kimdan kam emasligimiz va aslo kam bo'lmasligimizni ifoda etadi. Har safar sport arenalarida, xalqaro tashkilotlarda, konferensiyalarda, jahon ko'rgazmalarida yurtimiz bayrog'i yuqori ko'tarilganda qalbimizni qiyosi yo'q darajada g'urur va iftixon hislari egallab oladi.

Bugun vatanimizning barcha go'shalarda bayrog'imiz qabul qilinganligining 32 yilligi keng nishonlanmoqda. Bundan 32 yil muqaddam, ya'ni 1991-yil O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i" to'g'ridagi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun 13-ta moddadan iborat bo'lib, shu qonunda bayrog'imiz haqida barcha ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasining bayrog'i to'g'ri to'rburchak shakldagi matoda aks etgan bo'lib, uchta asosiy gorizontal rangdor bo'laklarga bo'lingan. Ular: yorqin moviy, oq, yorqin yashil. Bu bo'laklar orasini ikkita qizil rangdag'i gorizontal chiziqlar ajratib turadi. O'zbekiston bayrog'i ramzi mamlakat hududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat qudratli saltanatlar bayroqlariga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda, xalqning milliy va madaniy o'zligini ham aks ettiradi.

Ko'kda hilpirar mag'rur, O'zbekiston bayrog'i, Dillarga solar g'urur, O'zbekiston bayrog'i, "O'z bayrog'im", deb xalqim, dilda qilar iftixon, Undagi har bir rangning, o'z ramzi, ma'nosi bor.

Bayrog'imizdagi moviy rang – musaffo osmonimiz hamda obihayot ramzidir. Oq rang – davlatimiz fuqarolarining o'zaro hamjihatlikda, bir-birini hurmat qilib, diniy bag'rikenglik tamoyillari asosida tinch-totuv yashayotganining timsoli. Yashil rang esa, tabiatning yangilanishi hamda yurtimizning jannatmonand ekanligidan dalolatdir. Bu rang ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi. Qizil chiziqlar davlatimiz farovonligi, jamiyat taraqqiyoti yo'lida o'zaro hamjihatlik bilan hormay-tolmay mehnat qilayotgan yurt farzandlarining vujudida oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir. Yarimoy – O'zbekiston xalqining ko'p asrlik an'analarga muvofiq keladi. Yarimoy va yulduzlar musaffo osmonning va tinchlikning ramzlaridir. Bayroqdagi 12 ta yulduz tasviri mukammallik belgisidir.

Davlatimiz bayrog'i tinch va osoyishta, ozod hamda erkin hayotimiz, yorug' kelajagimizga bo'lgan ishonchimiz timsolidir. Davlat ramzlarining muqaddasligini, ular bizga yurt manfaati har nedan ustunligini anglatib, eslatib turishini har birimiz yodda tutishimiz shart. Shunday ekan, sarbaland qaddimiz va qadrimiz timsolini hamisha e'zozlaylik va boshimiz uzra baland ko'taraylik!

## Professor-o'qituvchilar Xalqaro konferensiyada ishtirot etdi

**Qadimdan olim va donishmandlar yurti hisoblangan zaminimizning farzandlarini bugungi kunda ilm-fan, texnika, san'at, sport sohasida qo'lga kiritayotgan yutuqlari yildan-yilga ortib bormoqda. Davlatimiz tomonidan ta'lim tizimida ishlayotgan professor-o'qituvchilarining puxta bilimga ega bo'lishi, ilm cho'qqilarini egallashi uchun yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar ana shu yutuqlarning poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.**

**Kamoliddin UMAROV,  
"Madaniyatshunoslik" kafedrasi o'qituvchisi**

Xususan, professor-o'qituvchilarining malakasini oshirish, xorijiy yetakchi oliy ta'lim muassasalarini bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yishi, zamonaviy bilimlarni egallashi, yetuk ilmli insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida yurtimizda barcha shart-sharoitlar yaratib berilmogda. Ularning orzu-maqсадalarini ro'yobga chiqarish, ilg'or tashabbus va g'oyalarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Institutimizning bir qator professor-o'qituvchilar Turkiya Respublikasining Izmir shahrida joylashgan Xalqaro Oliy ta'lim muassasalarining nufuzli QS-1000 talik ro'yxatiga kiruvchi Ege Universitetining 2023-yil 30-iyulagi rasmiy taklifiga asosan 2023-yil 1-4-noyabr kunlari Xalqaro konferensiya hamda O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning ijodiy merosiga bag'iishlangan kitob taqdimotida ishtirot etdi.

Xalqaro konferensianing ochilish marosimida Ege Universiteti rektori, professor Nedjdet Budak so'zga chiqib, bugungi kunda Turk dunyosi oliy ta'lim muassasalarini bilan samarali hamkorlik olib borilayotganini aytdi. Konferensiya tashkilotchilariga ishtirotchilariga omad



tiladi. Shundan so'ng, turkiy adabiyotning yetuk bilimdoni professor, doktor Yavuz Akpinar hamda ushbu xalqaro konferensianing tashkilotchisi dotsent, kafedra mudiri Yelmez O'zkayalar anjumanning maqsad, vazifalari, kutilayotgan natijalar xususida nutq so'zladilar.

Institutimiz nomidan ishtirot etayotgan filologiya fanlari doktori, professor Ma'rufjon Yo'idoshev "Çolpanin Gece ve Gündüz Romanında Eski – Yeni Çatışması" mavzusidagi ma'ruzasi hamda "San'atshunoslik"

kafedrasi mudiri, dotsent, (PhD) Fahriddin Abduvohidov o'zining "Ismoil Gaspirinskiy va o'zbek teatri" mavzusidagi ma'ruzasi bilan chiqish qilishdi. Ma'ruzadan so'ng tinglovchilar tomonidan savollar berilib, yakunida samarali xulosa va takliflar berildi.

Eng qadim san'atlardan bo'lmish adapiyot bilan eng yosh san'at turi kinoning o'zaro hamkorligi har

ikkala san'at uchun katta ahamiyat kasb etadi. Adabiyot ta'sirida kino mazmunan to'q, g'oyaviy hamda badiiy jihatdan mukammallik kasb etsa, kino ta'sirida adapiyot ommaviylashadi va butun insoniyatga dahlor bo'ladi. Garchi filmning asosi dramaturgiya, ya'ni adapiyot bo'lsa-da, mustaqil badiiy asar sifatida dunyoga kelgan hikoya, qissa, romanni kino tiliga ko'chirish biroz murakkablik talab qiladi, ba'zan umuman mumkinmasdek tuyuladi.





**Oqila ORTIQBOYEVA,**  
“Madaniyat va san’at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish” ta’lim  
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

### Toshkanim manim!

Chavandozning samanidir shu,  
Go‘zal gulning chamanidir shu,  
Bulbularning Vatanidir shu,  
Azim shahrim, Toshkanim manim!

Meni qynar ozorlaringdan,  
Rasta to‘la bozorlaringdan,  
O‘xshashi yo‘q gulzorlaringdan,  
Azim shahrim, Toshkanim manim!

Zerikishning poyoni o‘zing,  
Muhabbatning makoni o‘zing,  
Oltin davrim oshyonи o‘zing,  
Azim shahrim, Toshkanim manim!

Yeriga cho‘p suqsang, nihol unajak,  
Samoga tosh otsang, hilol bo‘lajak,  
Seni kutar hali nurli kelajak,  
Azim shahrim, Toshkanim manim!



**Mirjalol MIRSAVLATOV,**  
“Madaniyat va san’at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish” ta’lim  
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

### Meni g‘iybat qilib, charchamaganlar

Bu mening hayot tarzim,  
Hech kimga yo‘qdir arzim,  
Sizlardan yo‘qdir qarzim,  
Meni g‘iybat qilib, charchamaganlar.

O‘z holimcha yashab yuribman,  
Arpangiz qachon xom o‘ribman,  
Gapiring oldizda turibman,  
Meni g‘iybat qilib, charchamaganlar.

Boshi chiqmasin deb balodan,  
Ayb izlaysiz bitta xatodan,  
Axir qo‘rwmaysizmi Xudodan,  
Meni g‘iybat qilib, charchamaganlar.

Quvvatingiz ko‘p ekan,  
Charchamaysiz g‘iybatdan,  
Ayb topasiz xilqatdan,  
Meni g‘iybat qilib, charchamaganlar.

Boshimga tushsa gar g‘am-alam, tashvish,  
Ortdan tarqatarsiz har-turli mish-mish,  
Hech ham unutilmaydi, siz qilgan qilmish,  
Meni g‘iybat qilib, charchamaganlar.



**Amriddin SHOMURODOV,**  
“Madaniyat va san’at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish” ta’lim  
yo‘nalishi, sirtqi 3-bosqich talabasi

### Yo‘lovchi

Men bir yo‘lovchiman, Alloh yo‘lida,  
Kelganman, ibodat qilmoqlig uchun,  
Dumaloq zaminning besh panjasida,  
Qoldirdi, Yaratgan sinamoq uchun.

Men bir yo‘lovchiman, qalandar bo‘lib,  
Alloh ishqil bilan yonadi qalbim,  
Men bir yo‘lovchiman Haqni axtarib,  
Og‘ir karvon bilan sinalar sabrim.

Mashaqqat ichida o‘tadi umr,  
Ketaman, yo‘limda ming bitta dovon,  
Ko‘ngilning iymonga to‘lgani shudir,  
Dard kelsa shukrona keltirar hamon.



**Dilshoda OYNAZAROVA,**  
“Ommaviy tadbirlar menejmenti”  
ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

### Sen mening sevimli kasbimsan san’at!

Tongda uyg‘otguvchi quyoshimmiding,  
Tunda yo‘lim yoritgan oyimsan san’at.  
Sen qalbimga orom baxsh etding,  
Kuylarim maromi o‘zingsan san’at!

Hatto tushlarimda qumsayman seni,  
Sen mehrimning taftisan san’at.  
His etarman har lahzha baxtni,  
Sen mening sevimli kasbimsan san’at!

**Zohidjon JUMANAZAROV,**  
“San’at va madaniyat sohasi menejmenti”  
ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi



### Sizni Alloh uchun suydim ustoz!

Bir sharif tingladim yop-yorug‘ kunda,  
Angladim iyomon ne, ne erur ixlos.  
Biror bir dunyoviy da‘vo yo‘q menda,  
Sizni Alloh uchun suydim, ey ustoz!  
Menga ta’sir qildi jami so‘zingiz,  
Demak jami so‘zga sobit o‘zingiz.

Ko‘rmagan bo‘lsamda bir bor yuzingiz,  
Sizni Alloh uchun suydim, ey aziz ustoz!  
Hayratda qotdim men zulmat surindi,  
Zimiston kechada bir nur ko‘rindi.  
Menga xitob bo‘ldi: do‘sstim yur, endi,  
Sizni Alloh uchun suydim, ey ustoz!

Amal maydonida g‘arib emassiz,  
Sho‘rlik ahvolimni aslo sevmassiz.  
Eltimol siz meni shogird demassiz,  
Sizni Alloh uchun suydim, ey aziz ustoz!  
Zayd ibn Sobitdek endi qalb to‘xtar,  
Mo‘minning nigohi kofirga o‘qdir:

O‘rtada boshqa bir robita yo‘qdir,  
Sizni Alloh uchun suydim, ey aziz ustoz!  
Odamlar bir-birin mansab deb quchsa,  
Yoki mol davlat deb, par qushdek uchsa,  
Jamiki muhabbat izidan ko‘chsa,  
Sizni Alloh uchun suydim, ey aziz ustoz!

Yovlaringizga goh yig‘lab kularman,  
Alarning oxirin taxmin qilaran,  
Yusuf Payg‘ambarning sabrin tilarman,  
Sizni Alloh uchun suydim, ey aziz ustoz!  
Duoda qo‘limiz, Xudoyim tengsiz,  
Jannat deb atasin maskanlaringiz,

Bizga ham dushmandir dushmanlaringiz,  
Sizni Alloh uchun suydim ey, aziz ustoz!  
Yulinib olingach haq oramizdan,  
Duodan boshqa bir yordam yo‘q bizdan,  
Asli o‘rganganman shuni ham sizdan,  
Sizni Alloh uchun suydim, ey ustoz!



**Behruz O‘TKIRQULOV,**  
“Madaniyat va san’at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish” ta’lim  
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

### Otamga og‘irlik qilmadi yukim

O‘lsam, do‘sstarimga maloldir balki,  
Sasigan jasadim, hattoki tukim,  
Hammaga og‘irlik qildi-yu biroq,  
Otamga og‘irlik qilmadi yukim.

Bo‘ldilar adolat istagan qozi,  
Ba‘zan bilib-bilmay qildilar hukm,  
Gohi ranjitsa ham o‘g‘lidan rozi,  
Otamga og‘irlik qilmadi yukim.

Kecha past-pastlarda birga yurganlar,  
Balanddan boqdi-yu dedilar: bu kim?  
Hammasi o‘tkinchi bo‘lgan dunyoda,  
Otamga og‘irlik qilmadi yukim.

# Professor-o'qituvchilar Xalqaro konferensiyada ishtirok etdi

**2** “San'atshunoslik” kafedrasi dotsenti, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Baxtiyor Yakubov o'zining “Adabiy asarni ekransizlantirishda tarixiylik va badiiylik masalalari” mavzusida o'z ma'ruzasini tinglovchilar e'tiboriga havola qildi. Ege Universiteti professorlaridan biri ushbu mavzuga qiziqish bildirib, kelgusida o'zaro hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib borish xususida o'z taklif va mulohazalarini bildirdi.

Men “Yangi davr Turk dunyosi ijtimoiy-madaniy jarayonlarda adabiyotning zamonaqiy masalalari” mavzusida ma'ruba qildim. Ma'ruzamning asosiy mazmuni bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan zamonda, ijtimoiy-madaniy jarayonlarda yuz berayotgan voqeja va hodisalar, milliy va umuminsoniy masalalarga adabiyot orqali ta'sir ko'sratish xususida bo'ldi. Konferensiyada ishtirok etayotgan tadqiqotchilar tomonidan ma'ruzalarimiz yuzasidan savollar va takliflar berildi.

Xalqaro konferensiyada ko'plab professor-o'qituvchilarning ma'ruzalari

tinglandi. Jumladan, Ege Universiteti, Anqara hamda Istanbul Universitetlari, shuningdek Ozarbayjon, Tatariston, Boshqirdiston, Qozog'iston va Qirg'izistondan kelgan mutaxassislarining o'z ma'ruzalarini tinglovchilarga taqdim qilishdi. Mamlakatimizdan tashrif buyurgan Farg'ona va Termiz davlat universitetlari, O'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbek tili va folklori ilmiy tadqiqot instituti, Adabiyot va san'at muzeyining olimlari qatorida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari ham muhokamalarda faol ishtirok etishdi.

Quvonrali jihat shundaki, ularning aksariyat qismi o'zbek adiblarining, yozuvchi va shoirlarning ijodi xususida tahliyli fikr yuritishdi. Masalan Odil Yoqubovning “Ko'hna dunyo” romani, Oybekning “Navoiy” romani, Murod Muhammad Do'stning “Lolazor” romani va boshqalar shular jumlasidandur. Institutimizning “Sahna nutqi” kafedrasi o'qituvchisi Nurilla Usmonov o'zining “Turk dunyosi roman va hikoyalarda nutu

madaniyati masalalari” nomli ma'rurasini bilan faol ishtirok etdi. Ege Universitetining professor-o'qituvchilari bu mavzuning bugungi kunda muhim ahamiyatga egaligi to'g'risida alohida ta'kidlab o'tishdi. Ushbu jarayonlardan keyin tashkilotchilar tomonidan konferensiya yakunlariga bag'ishlangan briefing tashkil etildi. Unda bir qancha ma'ruzalar qatori institutimiz olimlarining ma'ruzalari ham yuksak e'tirof etildi hamda ularغا sertifikatlar topshirildi.

Shundan so'ng, Ege Universiteti infratuzilmasi, faoliyati, fakultet va yo'nalishlar, ta'lif shakli va xususiyati, tijoratlashtirish manbalari bilan yaqindan tanishdik. Zamona talablariga to'la javob beradigan Ege Universiteti kutubxonasi talabalar bilan gavjum. Kutubxona direktori Cengiz Coşkun bizni kutubxona faoliyati bilan tanishtirdi. Talabalarning bilim egallashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgani, kitoblarning xilmashilligi va turli tillarda mavjudligi hamda imtihonlar arafasida kutubxonaning 24/7 rejimida ishlashini alohida ta'kidlab o'tdi.

Tanishtiruv yakunida Ege Universiteti kutubxonasiga O'zbekistondan esdalik sifatida “Cinematography of Uzbekistan” kitobi sovg'a qilindi.

Ege Universitetiga tashrifimiz sabablaridan biri bo'lgan O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf hayoti va ijodiga bag'ishlangan kitob taqdimoti ham ko'ngildagidek bo'lib o'tdi. Institutimiz professori Ma'rufjon Yo'idoshev kitob taqdimoti jarayonida Respublikamizda madaniyat va san'at, adabiyot sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar xususida fikr yuritdi. Qolaversa, ushbu kitob aynan Muhtaram Prezidentimizning “Adiblar xiyoboniga” tashriflaridagi tashabbuslari bilan yaratilganligi alohida e'tirof etildi. Adiblar xiyoboniga tashrif buyurgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'ssatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak”, –deya ta'kidlagandi.

Biz yosh tadqiqotchilar bu kabi hamkorliklar barqaror bo'lishi maqsadida turk dunyosidagi olimlar bilan do'stona munosabatlarni yanada rivojlantirib, mustahkamlab, ilmiy va ijodiy tajriba almashish tarafdomiz!



## Ma'rifat bog'ining bog'bonlari

Ustoz so'zi zamirida olam-olam ma'no va hurmat mujassam. Ustoz – bu o'zidan keyin har bir insonning hayotida sezilmas ammo juda muhim iz qoldiruvchi inson. Zero, har bir kasb egasi muallim qo'lida o'z yo'lini topadi.

**Irodaxon ABDULHAMDOVA,  
“Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta'lif yo'nalishi  
1-bosqich talabasi**

Mening ham o'z yo'limni topishimga sababchi bo'lgan ustozlarim talaygina. Jonkuyar, mehrbon, talabchan ustozlarim Andijon viloyati Bo'ston tumani 14-umumiylig o'rta ta'lif maktabining fidoyilaridir. Chunki har bir insonning o'qishga, hayotga qiziqishi avvalo o'zi o'qigan maktabdan boshlanadi.

Shunday ekan, tumanimizdaggi o'qituvchilardan o'zining ilmi oqilona boshqaruva tizimi bilan ajralib turuvchi maktabimiz direktori Dilfuza Ahmedovadir. U inson maktabimizda dastlab rus tili fani o'qituvchisi bo'lib ishladi, so'ngra boshqaruvchilik qobiliyati tufayli uzoq vaqt o'tmay maktab direktori etib saylandi. Hozirgi kunda Dilfuza Abdulazizovnaning tashabbusi bilan maktabimizda juda ko'p tadbirlar, ilmiy bellashuvlar o'tkazilmoqda.

Maktabimizning mana shunday jonkuyar ustozlaridan yana bira Shohida Ro'ziyeva. Bu ustozim ham o'zining shijoatliligi, o'z ustida ko'p shug'ullanishi va bilim borasida o'quvchilariga talabchaniligi bilan ajralib turadi. Ilm yo'liga jiddiy qarashlari tufayli, juda ko'p o'quvchilarining talabalik baxtilga musharrif bo'lishlariga sababchi bo'lgan muallim. Albatta, maktabimizdaggi o'qituvchilarning iqtidorini, bilimlarini qanchalik ko'p yozmay baribir kamlik qiladi.

O'qituvchi va murabbiylariga ana shunday yetuk mutaxassis yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazadi. Dunyoda ming-minglab kasblardan bora, ularning orasida buyuk kasblardan bora o'qituvchilik. Hadisi shariflarda ilmiga amal qiluvchi olim-u ustozlarni hurmat qilish, e'zozlash haqida yozilgan.

Inson yo'q-ki ustoz-muallim sabog'isiz kamolga

yetgan bo'lsa! Insoniyat kamoloti uchun bilimi, iqtidori va hayotini baxsh etgan ustozlarning xizmatlarini hamma zamonlarda ham kishilar hurmat qilib, o'zlarini esa e'zozlab kelishgan. Mening ham mana shunday hurmatim cheksiz bo'lgan ustozlarimdan yana bira “Goya” o'quv markazining ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Arabboyeva Kumushxon ustozga o'z minnatdorchiligidagi bildiraman. Chunki ular o'zidagi bor bilimi, va vaqtini biz uchun sarflab, o'qishga kirishimiz uchun astoydil harakat qilganlar.

*Najot guln o'stirar Avloniy gulbog'ida,  
Haq olinur, berilmas Behbudiy sabog'ida.  
Oqilxonning siyomosi “Alifbo” varog'ida,  
Ustoz qadami qutlug', ustoz otangdek ulug'*

Yugoridagi misralardan ko'rinish turibdiki, ustozlar shogirtlariga to'g'ri yo'l ko'sratani tarixdan ma'lum. Mening o'qishga kirishimga asosiy sababchi bo'lgan maktabimizning tarix fani o'qituvchisi Xoshimova Dilnoza ustoz bo'ladi. Ularning bizga o'tgan qiziqarli darslari tufayli menda tarix fanini o'qish hissi uyg'ongan. Shu sababli tumanimizdaggi “Goya” o'quv markazi tarix fani o'qituvchisi Abdurazzoqov Abrorbek domlaning darslariga bora boshlaganman. Ular yosh bo'lishiha qaramay, juda ko'p o'quvchilarning asosiy maqsadi bo'lgan, talabalik baxtilga erishishlariga sababchi bo'lgan, talabchan va shijoatlari o'qituvchidir.

Darhaqiqat, kishida ilm o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Albatta, buning uchun ustoz zarurdir. Ilm va uni talab qilishning fazilati naqadar ulug' bo'lsa, ilm o'rgatish ya'ni ustozlik qilishning fazilati undan ham buyukdir. Albatta, ustoz va murabbiylar jamiyat binosining binokrlari, ma'rifat bog'ining bog'bonlari. Ular hayot bo'stonidagi niholning baquvvat daraxtgaga aylanishi uchun beqiyos hissa qo'shadi. Shuning uchun ham, uning shogird oldidagi haqqi benihoya katta va ulug'dir.



Ustozim Navoiy viloyati Qiziltepa tuman Xalq ta'limi bo'limga qarashli 31-umumiylig o'rta ta'lif maktabida 2014-yildan buyon faoliyat yuritib keladi. 2010-2014-yillarda Navoiy davlat pedagogika institutida tahsil olgan. Oliy toifali o'qituvchilik faoliyati bilan birga, 2022-yil 2-mutaxassislikda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga budget nazorati va g'aznachilik fakultetida ham talaba bo'lgan. Qolaversa, ommalashtirish, uz platformasiga joylashtirilgan 8-sinf O'zbekiston tarixining Xiva xonligi tarixining Xiva xonligi

tarixi bo'yicha manbalar mavzusidagi dars ishlanmalari Respublika ta'lim markazi huzuridagi ilmiy metodik kengashning 2023-yil 6-apreldagi 1-sonli qarori bilan viloyat miqyosida ommalashtirildi. 2017-yil “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi” ko'rik tanloving tuman bosqichida 1-o'rinni egalladi.

Eng bilimli o'quvchilari Abduroziqova Yulduz tarix fanidan o'tkaziladigan bilimlar bellashuvida ketma-ket 2018-2021-yillarda faxrli 2-o'rinni egallab, maktab shanini munosib himoya qildi. Bundan tashqari 2023-yil umumta'lif fanining darajasini baholash bo'yicha o'tkazilgan tast sinovida 95,3ballni qo'liga kiritib, milliy sertifikat sohibi bo'ldi. Men mana shunday ajoyib ustozning o'quvchisi ekanimdan faxlanaman. Ular sabab bugun hayotda o'z o'rnimni topish uchun ilk qadamlarni qo'yamoqdam. Aynan shu insonning bilimi meni olygochning talabasiga aylantirdi. Shu sabab men ustozimga qancha rahmat aytasam ham kam.

**Fotima RAJABOEVA,  
Madaniyat va san'at  
muassasalarini tashkil etish va  
boshqarish ta'lif yo'nalishi  
1-bosqich talabasi**

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, dublyaj ustasi, taniqli teatr va kino aktyori Hoshim Arslonov yaratgan obrazlarining sanog'iyoq. Kino muxlislari uning "Ijarachilar", "Xiyonat", "So'nggi qo'ng'iroq", "Singilginam", "Fidoyilar", "Qasos", "Alpomish", "Mening akam bo'ydoq", "Yorim bezori", "Haqiqat kuni", "Marg'iyona" kabi filmlardagi rollari orqali yaxshi bilishadi. Uning kinodagi so'nggi rollari: 2019-yilda suratga olingan "101-reys" filmi va "Bokira-2" serialidadir. Ma'lumki, Hoshim Arslonov bir filmda bir necha qahramonlarga ovoz berish qobiliyati bilan ham tahsinga loyiq inson edi. Masalan, "Esmeraldo" filmining o'zida Rodolf, Aderyan, Melisio, doktor Malaver kabi o'n beshga yaqin obrazlarni o'z ovozi bilan jonlantirgan. "Ichkarida" nomli turk serialidagi Jalol ota obrazini maromiga yetkazib ovoz bergani filmining ta'sir kuchini yanada oshirgan.

Toshkent shahridagi "Zarqaynar" mahallasiga yashab ijod etgan Hoshim Arslonovning xotirasini yod etish maqsadida aktyorning umr yo'ldoshi Mavluda ARSLONOVA suhbatga chorlaymiz.

## HAR BIR RO'LINI, O'Z HAYOTINI BUTKUL UNUTIB O'YNAR EDILAR

**- Mavluda opa, Taqdир haқida har kimning fikri har xil. Kimdir inson ona qornidaligidayoq Alloh uning taqdirini bitadi, desa, yana kimdir shoir G'fur G'ułom aytganidek: Taqdirni qo'l bilan yaratur odam,**

**G'oyibdan kelajak baxt bir afsona...**

**Sizning bu boradagi fikringiz qanday?**

– Taqdir Allohdan, albatta. Buning isboti sifatida sizga bir voqeani hikoya qilib beraman. 1974-yil iyul oyi – talabalikning eng go'zal onlarida biz ikki dugona ToshDU (hozirgi O'zbekiston Milliy universitet)ning roman-german tillari filologiyasi fakulteti talabalari, ya'ni men va Muborak yoz fasilda amaliyot o'tash uchun yo'llanma bilan Namangan viloyati Chust tumanining tog'bag'rida joylashgan bolalar lageriga yo'll oldik. Tog'lar bilan o'ralgan, suvlar sharqirab oqib turgan, Qirg'iziston bilan chegaradosh G'ova qishlog'da joylashgan lagerda tarbiyachi bo'lib ishlay boshladik.

Tog' havosi beg'ubor, go'zal tabiat bag'rida mazza qilib ishlab, hordiq chiqarib yurganimizda onalarimiz bizni yo'qlab kelishdi. Kelishlari bilan sharqiroq soylar shovqini, baland tog'larning haybati boshdimi, onam: "Bo'ldi, yur, uyg'a ketasan, sen qanday qilib bu tog'larning orasida yuribsan? Odamlar qo'rquamay, shunaqa joylarga ham qiz uzatarmikan-a?" – deya xavotirlanib, qo'limdan ushlab oldilar. Qiz uzatishning nima aloqasi bor bizga, deb hayron bo'laman. Biz lagerga bor-yo'g'i yigirma to't kunga kelgan bo'lsak...

– Yo'q, ketolmayman, hali oy tugamadi. Oyliginniyam olishim kerak, – dedim.

Onam qancha oylik olishimni so'radilar.

– 45 so'm, – dedim.

Shunda onam:

– Yur, ketamiz, men o'zim senga 50 so'm beraman, – deb turib oldilar.

Yetakchimiz kula-kula, "Xavotir olmang, bizning odamlarimiz samimiy, mehmonlarni xafa qilib qo'yamaymiz", – deb onamni zo'rg'a ovutdilar. Xullas, ularni arang ko'ndirib, jiyanim va o'tog'imning ukasini ham lagerda olib qoldik... Keyin zo'r taassurotlar bilan uyya qaytdik. Shu zaylda, talabalikning 3-bosqich davri boshlandi.

Sinfosh dunganom Mahbuba Toshkent davlat teatr va san'at institutida o'qir va institut sahnasida turli spektakllar qo'yishardi. Bir kuni Muborak bilan ularning institutiga bordik. Shunda Mahbuba Muborakka qarab:



– Mubor, seni hamshaharing bilan tanishtirib qo'yaymi? Hu, ana, ko'ryapsamni? – deya bo'ylari baland, uzun sochlari yelkasiga qo'ng'iroqdek yoyilib tushgan, "klyosh" shimli (har davrning o'z modasi bor, o'sha paytlari uzun soch va klyosh shimplar moda edi), chiroli yigitchani qo'l bilan ko'rsatdi, so'ng uni yonimizga chaqirdi.

Ulur Mubor bilan tanishyaptilar-u, xuddi men uni uzoq yillardan beri taniydigandek, nazarimda. Ochig'i, ilk marotaba yuragim jiz etdi... Keyin balsam, uning ham menga mehri tushgan ekan...

Shu bilan birpasda o'qishni ham tugatdik. Bitiruv kechamizni kafeda o'tkazadigan bo'ldik, onam ham keldilar. Dangalchi emasmani, darrov shu yerda Hoshim aka haqida onamga aytil bergenman, chustlik yigit, deb. Endi onaming ahvolini ko'rsangiz, o'sha vahimali tog'lar ichida yashamoqchimisan, deb xavotirga tushib qoldilar.

– **"Bu tog'lar orasiga kim qiz berarkin", deganlaridayoq, farishtalar: "Siz!", deb omin, deyishgan ekan-da...**

– Ha. Bu taqdirmasmi? Albatta, taqdir-da!

Ishqilib, onam birinchi marta o'sha kuni ko'rganlar u kishini. Keyinchalik bu haqda o'zlarini tanishlariiga faxlanib gapirayotganlarini eshitganman: "Qizim Chustga tur mushga chiqadimi, deya dilim xira bo'lib turganida, eshikdan yulduzday bo'lib Hoshimjon kirib keldi!"

Onamning o'g'liyo'qligigami yoki mehrlari tushdimi, kuyovini o'g'ildan a'lo ko'tar edilar. Umrlarining oxirigacha ona-bo'ladek yashashdi. Onamning hovilari teatrda yaqin edi. Biz Yunusobodda, teatr bergan uyda yashardik. Tur mush o'tog'im ko'pincha teatrdan kech chiqar va ayamnikida qoldim, – deb qo'ng'iroq qillardilar.

– **Hoshim Arslonovning oilasiga bo'lgan mehrmuhabbatini nimalarda ko'rgansiz?**

– U kishi oilasini juda qadrilar va mehr ko'rsatar edilar. Bolalar tarbiyasiga e'tiborli bo'lib, dam olish kunlari ham farzandlarini ertalabdan uyg'otib, dasturxon atrofida birga choy ichishni yaxshi ko'rardilar. Qizim dadassini shunday xotiraydi: "Otam mening qornim to'q, deb ovqatini bizga bersalar, ishonib yeyaverardik. Hammamiz to'ygach, bizdan qolgan ovqatni yerdilar. Endi o'ylasam, bizning to'yib ovqat yeyishimiz uchun shunday qilar ekanlar".

Kelinlarini qizidek yaxshi ko'rardilar. Ovqat qilayotgan vaqtlarida piyozini o'zlarini to'g'rab erberdilar: "Aylor kishining qo'lidan piyoz, sarimsa qipoyoz hidi kelmasligi lozim", – derdilar. Talaba kelinlarimizga shartnoma pullarini to'lab, hamma sharoitini qilib berardilar. Uch nafr kelin olgan bo'lsak, biron tasiga yotqoxna, mehmonxona jihozlarini yoki bosqha narsa oldirmaganlar. Qudalarning moddiy jihatdan qynalishini xohlamas edilar, kelinimiz oilamizga mehr bersa bo'ldi, derdilar. Yigit kishi oilasi uchun peshona teri bilan sharoi yaratishi kerak, deya botot takrorlardilar va o'g'illarimizga hamisha o'zlari o'nak bo'lar edilar.

Kuz keldi, deguncha kartoshka, piyoz kabi ro'zg'orga kerak bo'ladigan narsalarni bahorgacha yetadigan qilib, qoplab olib qo'yardilar. Ro'zg'orning to'kin bo'lishini yaxshi ko'rardilar. Tuzlamalarni tayyorlashda yaqin yordamchim edilar. Oilaning katta yumushlarida doimo yonimda ko'rardim u kishini. Oilaparvar edilar. Osh, qozon kabob qillardilar. Somsa tugishgacha yordam berardilar. Bolalar ham otasining pinjiga tiqilib, hammamiz uni maqtasak, negadir yelkam qichishayapti, derdilar. Nega desak, qanon chiqayapti shekili, farishtaga aylanib, uchib ketaman-ov yaxshiligidan, deb hazillashardilar. Mana, vaqt o'tib, aytganlari bo'ldi...

– **Odamlarning quvonchu tashvishini, ezgulik va yovuzliklarini sahnaga olib chiqish, asar qahramonlari hayotida yashash osonmas. Boshqa kasblarga nisbatan biz ayollar uchun bu kasbning yuki og'iroq. Ayniqsa, tur mush o'tog'ing'izning aktrisa ayol bilan (sahnada bo'lsa ham) "muhabbat munosabati"ni yaqinlariging bilan tomosha qilish qismati, ishonch va rashk orasidagi keskin kurashlar, ziddiyatlardaadolatli bo'lish oson bo'Imagandir sizga?**

– Aksinchalik, men hech qanday qiyinchilik yoki muammo ko'rmadim bu masalada. Negaki, hech qachon rashk qilmaganman. "Nega eringizni qizg'anmaysiz?" degan savolni ko'p berishgan. Avvalo, jamoadoshlarining hammasini yaxshi tanirdim. Teatr hovlisida tut daraxti bo'lardi. Yoz pallasida kechasi soat bir-ikki, gohida uchgacha o'sha tutning tagida taniqli rejissyor Bahodir Yo'ldoshev boshchiligidan bir guruh san'atkorlar to'planishib, ashula aytishardi, suhbatlashishardi, spektakllarga tayyorgarlik masalasida maslahatlashishari edi. Mavluda Asalxo'jayeva, Zulayho Boyxonova, Munojot Teshaboyevalar qo'shiq aytishardi. Men ularga ovqat pishirib olib borardim. Teatr jamaosi bilan men ham qadron bo'lib ketgan edim. Qolaversa, men o'zimning chiroym, aqlo zakovatim, muhabbat borasidagi munosabatlarim mustahkamliga ishonardim. Buning ustiga hamkasblari: "Bu Hoshimning gastrolga chiqqanimizga uch kun bo'lmay seni sog'ina boshlaydi, nima qilgansan buni? Buning ustiga o'zi egor yo'iga yurmagani yetmaganday, bizniyam nazorat qiladi!" deyishardi. O'zları esa: "Mavlyush, oila da erkak kishi harom yo'ga yursa, kasri begunoh farzandlariga urarmish. Men bunday gunohdan qo'rqaman", derdilar.

Bir kuni qaynonam bilan teatrda spektakl tomosha qilgani borganmiz. Rahmatli Baxtiyor Ixtiyorov sahnalashishgan "Onasining qizi" spektaklida tur mush o'tog'im Baxtiyor rolini o'ynayaptilar.

Bir kuni qaynonam bilan teatrda spektakl tomosha qilgani borganmiz. Rahmatli Baxtiyor Ixtiyorov sahnalashishgan "Onasining qizi" spektaklida tur mush o'tog'im Baxtiyor rolini o'ynayaptilar.

O'sha paytlarda ikki nafr bolamiz bor, aktyorning 25-26 yoshdagagi ko'rkam yigitlik paytlari edi. Sahnaga Hoshim aka chiqsa, yonimizda o'tirgan qizlarning biri: "Voy, Baxtiyor chiqdi, rosa yaxshi ko'raman shu aktyorni", desa, unisi ham: "Mengayam juda yoqadi, teatrda ataylab shu yigitni ko'rgani kelaman", dedi. Buni eshitgan qaynonam: "Ey qizlar, Jim o'tiringlar, u mening o'g'ilim, mana bu xotini bo'fadi. Ikki bolasi bor, uni nega yaxshi ko'rasan!" - deb, ularni urushib ketsalar deng. Men kulib yuborganman. O'sha paytda Saida Rametova bilan rol ijro etishayotgan edi. Saida hali tur mushga chiqmagan, yosh va chiroli qiz edi. Men o'zimga, o'tamizdagagi sevgining mustahkamliga ishonardim.

Aytmoqchimanki, rashk o'rnili bo'lsa, boshqa gap, asosiz rashk oilaning parchalanishiga olib keladi. Tur mush o'tog'ining ko'nglini zabit etganiga, sevgisi kuchiga ishonmagan insongsina huda-behuda rashk qiladi. Ular oy lab xizmat safarlariga ketardilar, men esa uch o'g'ilim, bir qizim bilan uyda qolaveradim.

– **Aktyor ko'plab rollar o'ynagan, yuzlab dublyajlarda ishtiroy etgan. Ayniqsa, "Qasos", "Marg'iyona", "Alpomish", "Otamdan qolgan dalalar", "Chavandoz" kabi ko'plab filmlar uni mashhurlik shohsupasiga olib chiqqan. U o'zining eng ko'ngli to'igan, o'zi yaxshi ko'radigan ijrosi haqida gapirarmidi?**



– Har bir rolini, ta'bir joiz bo'lsa, farzandidek yaxshi ko'rib, ijro etardilar. Agar o'zlariga yoqmaydigan obraz bo'lsa, uni olmaslikka harakat qilar, iloji bo'limsa dublyora tashlab qo'yardilar. O'yanigan har bir rolini yaxshi ko'rib, maromiga yetkazib o'ynaganlar. Ayniqsa, oxirgi paytlarda ijro etgan Ulug'bek Hamdam asari asosida sahnalashishiga "Muvozanat" spektakli ularga qattiq ta'sir qilgan. Shogirdlari "Spektakldan keyin yarim saatdan oshiq vaqt ustoz o'zlariga kela olmasdilar, biz uni holi qoldirardik", deb eslashadi. Har bir rolini butun vujudi bilan, o'z hayotini butkul unutib o'ynar edilar.


U kishi bir zum imasdi, goh kinoga, goh teatrga, goh dublyajga borardi. Qizig'i, yayov yurishni yaxshi ko'rardilar. O'g'illari ishxonasi oldiga borib kutib turishsa ham mashinasiga chiqmas, "yoyilsa oyoq chigak, ketar ko'ngil g'ubori", – derdilar.

Bir kuni odatlarga ko'ra metroda kelayotsalar, notanish kishi u yog'iga o'tibdi, bu yog'iga o'tibdi da yomon ko'z bilan qarayotgannish. Niyojet: "Aka, biz sizni yaxshi ko'rardik, hatto onam ham sizni yaxshi ko'rardilar. Lekin siz oxirgi rolingizda yomon odam bo'lib chiqibsiz. Biz sizni shunchalik yomon odam deb o'ylamaganimiz, sizni yomon ko'rib qoldik", – deb nariroqqa ketib qolibdi. "Tushuntirganima ham qaramadi-yo, odamlarimiz buncha ishonuvchan", – degen edilar o'shanda Hoshim aka.

"Otamdan qolgan dalalar" filmida Hoshim aka o'g'illarimiz Jamshid va Bobur bilan birga bosh qahramon rollarini ijro etishgan. "Alpomish"ni ham sevib talqin etganlar. Chunki aktyor tarixiy asarlarni qayta jondorishni yaxshi ko'rardi. Zahidin Muhammad Bobur obrazini spektakl va kinoda yaratishni orzu qillardilar. Hatto o'g'limizning ismini ham Bobur qo'yan. Armoni ham shu bo'lib qoldi. Boshqa armoni yo'q edi. Oilada hammamiz uchun sevimli bo'lib yashadi, kasbi tufayli Germaniya, Italiya, Fransiya, Bolgariya, Tatariston kabi bir qancha xorijiy davlatlarni ko'rdi. Xalqimizning, tomoshabinlarning hurmatini qozondi. Odamlari uni yaxshi ko'rishadi.

Farg'onaga borayotganimizda mashinamiz buzlib qolganda, odamlar uni tuzatib, bizni mehmon qilib jo'natishgan.

Umra ziyyoratiga birga borib keldik. Oradan ikki oy o'tib, Hoshimjon aka olamdan o'tdilar... Kunlarning birida menga qo'ng'iroq bo'ldi: "Biz Arab davlatida



yashaydigan o'zbek muhajirlarimiz, otim Abu Salmon Qo'qondiy. Biz Hoshim Arslonovi juda hurmat qilar edi. Pandemiyadan keyin Umra endi ochildi. Bugun Makkai Madinada ikki yuz nafr oshashda qaytishib, ko'zlarimdan shukronalik yoshlari oqdi.

– **San'atkorning spektakl va filmlardagi ijrolarini tomoshabinlar yaxshi bilishadi. Uning ichki "men", hayotdagi asl qiyofasiga chizgilar bersangiz.**

– Hoshim akam mehnatkash, oriyatli inson edilar. Talabalik yillarda ham ota-onasidan mablag' so'rashni or bilib, ta'til payti do'stlari Mahmud Ismoilov, Habibulla Hakimov (hozir Farg'onaga qo'g'irchoq teatri rahbari)lar bilan Toshkent-Moskva yo'nalishida qatnaydigan yo'lovchi poyezdida provodnik – kuzatuvchi bo'lib ishlab, pul topishardi. Olyighohni tugashini bilan O'zbek davlat drama teatri (sobiq "Yosh gvardiya", Abror Hidoyatov nomli)ga ishga kirgan, ammo yosh aktyor bo'lgani boismi, unga rol berishmagani uchun ruhan tushkunlikka tushardi. O'sha paytlari uni ichki ishlar sohasiga, sobiq Komsomol komitetiga ishga taklif qilishgan. Yosh oila, mablag' jihatidan qiynalayotgan paytimiz bo'lsa ham men ularga sabr qilsa hammasi yaxshi bo'lishini, iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli kasbini o'zgartirishmasligini, ota-onasi uning taniqli aktyor bo'lishini orzu qilishayotganini bot-bot atib turardim. Bu esa, uning kuchli bo'lishga undar va maqsadi sari intilishda yanada qat'iyat baxsh etardi.

Samimi, rahmdil, ollaparvar, haqiqatgo'y, birovdan yordamini aymaydigan inson edi. Nafaqat ishxonasida, balki kasalonada yotganlarda ham qarovsiz bir cholning barcha dori-darmonlarini olib bergan ekan. Kimningdir o'qishida, kimningdir ishga joylashishida ko'maklashardi. Mansab yoki unvonga intimas, odamlarni, ayniqsa ayollarni juda hurmat qilar edi. Lekin yolg'oni, xiyonatni – u xoh do'strning, xoh hamkasbning, xoh boshqaning xiyonatni bo'lsin – aslo kechirmas edi. Bu bilan o'zi ham qynalar, ammo xarakterini o'zgartira olmasdi.

– **Oila da farzandlaringizning ota kasbini tanlagani ham, tanlamagani ham bor. Hoshim aka ularning o'z ishini davom ettirishini istarmidi?**

– San'atning noni qattiq, iste'dodi bo'lsa san'at yo'liga kirsin, derdilar. Jamshid iqtisodchi bo'lsa ham "Championlik orzu", "Otamdan qolgan dalalar", "Sardon" filmlarida rol o'ynagan. Dilafro'z qizimiz hisobchi bo'ldi. Bobur Mirobod tumani Yoshlar agentligi raisi. Tomoshabinlar bir qancha kinolarda uning ijrosini ko'rishgan. Uning talabalikda ilk o'ynagan roli "

Sobiq ittifoq xalq artisti, dramaturg, bastakor Uzeyer Hajibekov yaratgan Arshin mal alan musiqali dramasiga 110 yil to'ldi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti teatr san'ati fakulteti, musiqali teatr san'ati kafedrasi 4-kurs talabalari ishtirokida diplom spektaki sahnalashtirildi.

Bahodir MAG'DIYEV,  
O'ZDSMI dotsenti

Ozarbayjon xalq musiqalari asosida yaratilgan ushbu asarning bir necha qo'shiqlarini, o'zbek tomoshabinlari ham yaxshi eslaydilar. Spektakldagi bosh qahramon Asqarning talaba (Mirabbos Qosimov) Arshin molchi kiyimida boy badavlat Sultanbek xonadoniga hiyla ishlatib kirib qolishi, ovozi boricha "Arshin mal alan", – deb turfa xil mato gazlamalarni sotib yurishi, xonadonning go'zal yosh qizi Gulchexruga (Hilola G'ayratova) ko'zi tushib, uni sevib qolishi, asardagi ariya va duetlar ijrosida yanayam zavqli, ehtiroslarga boy sahna bo'ldi.



## ARSHIN MAL ALAN 110 YOSHDA

Ayniqsa, Sultanbek (Bafoyev Asilbek) faqat boylikka mukkasidan ketgan, qizini ko'ngliga qaramay, faqat boyvachcha kuyovga uzatishni o'ylab yuradigan, shu asnoda o'zi Asqarning xolasiga oshiq bo'lishi, xarakterli chizgilarda hazil mutoyibaga boy tarzda ifoda etildi. Ayniqsa, "uch so'm pul, bir

kalla qand, bitta mulla tamom vassalom, ish pishdi", – deya takror aytishi, tomoshabinlarga yod bo'lib ketib, o'z-o'zidan yuzimizda kulgi uyg'otdi.

Diriyoq Akmal To'rayev spektakldagi ariya va duetlarni benuqson yangrashi uchun orkestr jamoasi bilan yaxshigina mehnat qilgani, aktyorlik mahorati

o'qituvchilari, sahna nutqi faniga javobgar Ramz Qodirovlarning mashaqqatlari mehnatlari tufayli ko'plab tomoshabinlar zavq oldilar. Spektaklni kurs badiiy rahbari, dotsent Sherzod Muhammadiyev sahnalashtirgan. Ijodkor talabalarimizga omad tilab qolamiz!



Insonlar uchun ovqatlanish, uqlash va hokazolar qanchalik zarur bo'lsa, ma'naviy ehtiyoj, tuyg'ularni muntazam ravishda oziqlantirish ham juda zarur. Bugungi kunda esa, bu vazifani asosan teleekranlarda berilayotgan har xil ko'rsatuvlar amalga oshirmoqda. Buni ichida ba'zilari tomosha, ermak, shou, cho'pchaklardan boshqa narsa emas. Shu jumladan, kino ham o'rinn olgan. Kino san'ati eng yosh san'at turi hisoblansada, lekin u tez rivojlandi va rivojlanmoqda. Ammo ayrim kinolar hozirgi kunda san'at uchun emas, sanoat va ermak uchungina rivojlanayapti. Kino san'ati kuldirishi, yig'latishi va hatto tunlarni bedor o'tkazishga ham sabab bo'lishiga xizmat qilishi kerak.

Kino san'ati bu – chin insoniy fazilatlarni tarbiyalaydigan, badiiy tafakkurni, didni shakllantiradigan, insonning yuragini yumshata oladigan bir so'z bilan aytganda – tarbiyadir. Shu ma'noda taniqli kinorejissyor Andron Mixalkov Konchalovskiining fikrlari e'tiborga loyiq: "Faqat tentaklar o'zgarmaydi... Globallashuv davlatlarning mustaqilligini madh etmoqda ...bizning tomoshabinlar esa taassufki, borgan sari kinoamerikaliklarga aylanib borayapdilar. Ular kino namoyishi paytida bodroq yeydilar. Nima uchun hozir kinoda shovqin ko'p? Chunki hamma kavshanib, chaynab o'tiradiganlar uchun kino yaratadi. Men esa, kitob o'quvchilar uchun film suratga olaman. Men o'g'limga ta'kidlab turamanki, kitob o'qimayotganlarni kitob o'qiyotganlar boshqaradilar..."

Aynan shuning uchun ham kinoning

vaqt o'tkazish hamda ermak bilan emas, aksincha san'at namunalari ko'proq bo'lganligi ma'qul . Bu vazifalarni bajarib, tarbiya bera oladigan kinolarimiz ham kam emas albatta, ularga o'tgan asrimizning eng durdona asarları: "O'tgan kunlar", "Shum bola", "Toshkent non shahri", "Yor-yor", "Suyunchi", "Mahallada duv-duv gap" kabi kinolar xalqning tarixida o'chmas iz qoldirgan asarlar sarasiga kira oladi.

Hozirgi kundagi mana shunday filmlardan: "Ilhaq", "Islomxo'ja", "Farida-ning ikkiming qo'shig'i", "Osmondag bolalar"(1,2,3-qisim) kabi bir qancha yaxshi asarlar yaratilyapti. Bu filmlarning barchasida milliyligimiz, o'zligimiz yashiringan. Bunday filmlar insonni chuqur fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirishga, shu jumladan Vatanga bo'lgan muhab-

batini oshirishga yordam beradi. Afsuski, barcha filmlar ham mana shunday asarlar qatoridan o'r'in egallay olmayapti.

Kino bu aslida san'at, ammo ko'plab qo'shtirnoq ichidagilar kinodan sanoat yo'lida foydalanishmoqda. Misol uchun hozirgi televideniyelarda qo'yilayotgan ko'plab kinolar shular jumlasidandir. Ularning barchasi cassabop filmlardir. Misol uchun, yangi premyera bo'layotgan "Mening sevgilim ayg'oqchi" filmi. Bu filmda asosiy bir g'oya yo'q, shunchaki vaqtini befoyda sarf etish uchun ko'rildigan kinolar sarasiga kiradi. Filmning dekoratsiyalari, kiyinish uslubi, gapirishi, madaniyati, mentaliteti umuman barchasi o'zligimizdan yiroq, Bularning barchasi chet el filmlariga taqlid sifatida olinganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Filmdagi aktyor va aktrisalarning kiyinish uslubi sahna, san'at va eng asosisiyo o'zligimizga bo'lgan humatsizlikdir. Bunga misol qilib, shu filmda bir narkfurush bankirning yordamchisi rolini o'ynagan aktrisaning kiyinishi, yana bosh roldagi qizning kiyinishi va gapirishida butkul Yevropa madaniyati aks etgan.

Hozirgi kunda berilayotgan serial va filmlardan "Kim u?", "Gunoh", "Uylanishni hohlamayman", "Dizayner", "Bezovta ruh", "Kelin", "Iblis O'yini" singari, bir xil mavzudagi ya'ni: qaynona va kelin, jazmanlik, qimorvozlik, o'g'rilik kabi maishiy janlar ko'plab topilmoqda. Bunga sabab, san'atdan sanoat sohasida foydalanish bo'lib qolgan holos. O'zimizning filmlarni qo'ya turaylik... Teleekranlarga berilayotgan tarjima kinolar-chi? Bu filmlarni ommaga ko'rsatib, nimalarni targ'ib qilishmoqda? Xalqning internetda har xil bo'Imag'ur: "Hi barby!" (Salom barby) va shunga o'xhash masxaraomuz videolarni qilib, tanilishiga ham balki shu chet el filmlari sabab bo'lmayaptimi? Ba'zi bir o'z nafsiga erk bergan insonlar tufayli san'at sohasi sanoat va ermakka aylanib qolmadimi?

Yaqinda o'z nafsiga qarshi chiqqo olmagan yana bir insonning chet eldan (Kanada) O'zbekistonga ko'rsatish uchun olib kelgan "Do'stlik o'yini" yoxud "O'z xohishlarining qo'rqing" – deb nomlangan filmni ko'rdim. Bu filmda ichkilikka, narkotik moddalariga va behayoliklarga berilgan ba'zi Kanada fuqarolarining odatiy tusga aylangan



Sevinch ERKINBOEVA,  
San'atshunoslik (kino san'ati  
tanqidi va tahlili" ta'lim  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

hayot tarzi aks etgan. Ba'zi bir Yevropa mamlakatlarining bunday ma'nosiz, odobsizliklarini qanday qilib film sifatida tomoshabinlarga ko'rsatish mumkin? Filmning mavzusi do'stlik, ammo filmda behayo joylari shunchalar ko'pki, agar ularni hammasi kesilib qo'yilsa mohiyati yo'qolib, tushunarsiz bo'lib qoladi.

Aksariyat Yevropa mamlakatlarida bunday filmlarni "film" deb qabul qilishar. Ammo biz, bularni film sifatida qabul qilolmaymiz, chunki bu bizning mentalitetimizga hos emas. Yaqinda yana bir "Yap-yangi Alomatxon" nomli Qozog'istonliklar filmni ommaga tarjima qilib namoyish qilishdi. Nahotki insonning hayo, or-nomusi masasida oddiy bir humor deb, kulgi ostiga oladigan darajaga yetdiq?

San'at sohasini shunchaki, insoniyikning ustidan kulis bilan almashtirishdi. "Yap-yangi Alomatxon" filmida ijo etilgan robot roli umuman o'xshamagan. Robot hozirgi zamonning zamonaviy qizi qiyofasida gavdalangan xolos. Chunki hech qaysi robot raqsga tushayotganda pastki qismi harakatga keltirib o'ynay olmaydi. Bu mantiqqa zid! Iltimos bunday filmlarni olib kelib qo'yib, o'z kelajagimizga bolta urmaylik, hurmatimizni ham tushirmaylik, nafs uchun millionlab insonlarni xarob qilmaylik!

Mana, kuz faslining uchinchi oyi ham poyoniga yetmoqda. Tabiat yashil rangini, qizg'ish, sariq tuslarga bir ajib tarzda almashtirmoqda. Talabalar uchun ham yangi o'quv yilining salkam uch oyi bir pastda o'tdi. Men ham shu yildan talabalar safidaman. Talabalik baxti nasib qilib, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining birinchi bosqich talabasiman. Guruhdagi barcha talabalar mendan anchagina yoshroq...

Barno RAVSHANOVA,  
1-bosqich talabasi

# TIRBAND YO'NALISHLARDA...

(yohud milliy mentaletetimizga zid voqealar hususida)

Insonning yoshi nechchi bo'lishidan qat'iy nazar, ilm izlaganga imkoniyatlar mavjudligi, kishini xursand qiladi. Tinch va farovon yurtning bir bo'lagi ekanligimdan baxтиyorlik hissini tuyaman.

Alloha ming shukrlar bo'lsinki, bizning yurtimizga osoyishtalikni, bag'rikenglikni bahsh etgan. Eng go'zal fazilatlar, mehmondo'stlit, samimiylit, mehr-oqibat, qardoshchilik munosabatlari, musulmon dinining barcha fazilatlari va insoniylikning har bir ijobjiylik tuyg'ulari, bizning, o'zbek xalqining yashash faoliyatiga munosibdir. Bundayin yuksak samimiyat o'zbek elining oftobdek iliq chehralarida o'z ifodasini topgan, desak mubolog'a bo'lmaydi.

Ammo har kuni ertalab bir yo'naliish bo'ylab, o'qishga yo'l olar ekanman, avvalo musulmonchilikka, qolaversa har jahbada dadil odimlab, har sohada imkoniyat darajalarini yuksaklikka ko'tarib borayotgan yurtimizning ko'rinishiga, xunuk bir ko'rinishni ifoda etuvchi holat ko'pincha bezovta qiladi.

Bu yo'lovchi tashuvchi transportlarning haddan ziyod, o'z sig'imidan ham ortiq yo'lovchi olishi bilan bog'liq muammo deb o'layman. Soat ertalabki 7:30 dan, 9:00 gacha chamasi hamma ishga, o'qishga kechikmaslik uchun shoshadi. Men ham o'sha shoshilganlarning biriman. Kechiksam, institut qonun-

qoidalari buni qabul qilmaydi.

Shoshib harakat qilsam tirband aftobusda, goh oyog'im eziladi, goh qo'llim qayriladi, yana kimlardir havo yetishmay mazasi qochadi... Ha, huddi men kabi yurtimizning juda ko'p aholisining, ko'p yo'lovchi sig'imiga ega transportlarga ehtiyoji baland.

Hamma ham manzila o'z vaqtida yetib borishni xohlaydi, haydovchilar ham, ketaman deb o'zini avtobusga urayotgan yo'lovchilarni ko'ksidan turta olmaydi. Har kuni 63 va 129- avtobuslari bilan manzilim tomon odamlar orasida ketar ekanman, "shu yo'naliishga yana avtobus qo'yish kerak, nega avtobus buncha kamnamo keladi"? – degan nolali gapini bir necha bor eshitaman.

Halqning ehtiyojidan kelib chiqqan holda va tiqlinch avtobuslarda, or-nomusini, iffatini ko'z qorachig'idek asrab yuruvchi o'zbek ayol-qizlarini, nomahramlar bilan yelkama-yelka, yoki qo'polroq qilib aytganda, "gavdasi gavdaga" tegib, hatto nafas olishini eshitib, ming xijolatlik bilan, yuzini qayerga burishni bilmay, ammo sharoit tufayli shu holatga rozi bo'lib ketayotgan opa-singillarimning ahvoldidan kuyinib, o'zim ham yo'lovchilar orasida bo'lganim uchun ushbu maqolani yozishga qalbimda qandaydir ilinj paydo bo'ldi. Bunday ko'rinish, musulmonchiligimizga, e'tiqodimizga,

dinimizga va o'zbek mentalitetimizga mutloq ziddeq seziladi. Menimcha, musulmonman, o'zbekman degan har bir inson shunday o'ylasa kerak. Ushbu holat bo'yicha mutasaddi xodimlarning balki bundan xabarları yo'qdır...

Bunday holatda hech kimni ayblab ham bo'lmaydi. Ammo oldimizda tobora souvuq kunlar boshlanmoqda. Qish ham izg'irin qilichini sudrab kelmoqda.

Ushbu holat tegishli bo'lgan rahbariyatdan, yo'lovchi tashuvchi transportlarga ehtiyoji bor aholi nomidan shuni iltimos qillardimki, faqat ertalabki 8:00 dan, 9:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'iga 63 va 129-avtobuslar qatnovini bir, ikkitaga ko'paytirsangiz... Bunday xalqimiz, ayniqsa yoshlar juda-juda minnatdor bo'lardi. Men ushbu maqolani Toshkent shahrining birgina yo'naliish transportlari misolida yozdim xolos. Biroq shahar bo'ylab bunday yo'naliishlar ko'p sonni tashkil etadi.

Axir o'quvchi, talaba, ishchilar har bir ko'chalar, tumanlar va mahallalarda ko'pchilik.... Biz insoniylik fazilatini yuqori qo'yan xalqmiz. Umid qilamizki, tez orada, aholi ko'p qatnovchi yo'naliishlar aniqlanib, yo'lovchi tashuvchi avtobuslar qatnovi, ertalab o'qish va ishga ketish vaqtlarida ko'paytirlisa maqsadga muvofigdir. Zero, bizning jona-jon Vatanimizda, inson qadri ulug' va manfaatlari har narsadan ustundir.



## "Madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga doir muammo va yechimlar" mavzusida o'tkazilgan ilmig-amaliy konferensiya haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli farmoni va 2022-yilning 2-fevralsa "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 112-sonli qarori asosida 2023-yilning 3-may sanasida O'zDSMIda "Madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga doir muammo va yechimlar" mavzusi ostida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Sabrina IBRAGIMOVA,  
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lif yo'naliishi  
2-bosqich talabasi

Konferensiya qizg'in va ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Turli xil muammoli mavzularning muhokamasi bo'ldi. Ushbu mavzulardan biri "O'zbekistonda Madaniyat markazlarini tubdan isloh qilish edi". Hozirgi kunda aksariyat madaniyat markazlari yaxshi faoliyat olib bormayabdi, – deya ta'kidlay olamiz.

### Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Ma'rufjon YO'LDSHEV

Tahrir hay'ati:  
Sobirjon JUMAYEV  
Hamdan ISMOILOV

Mas'ul kotib:  
Ozoda SHOBİLOLOVA

Muharrir:  
Dilnoza QURBONOVA

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,  
Mirzo Ulug'bek tumani,  
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.  
Telefon: (71) 230-28-03.  
(71) 230-28-13.

Sahifalovchi:  
Abdug'ani SODIQOV  
www.dsni.uz;  
nashriyot@dsni.uz

O'Ichami – A3, hajmi 4 bosma taboq.  
Nusxasi – 250 dona. Narxi keliishigan holda.  
Chop etishga 30.11.2023-yilda topshirildi.  
Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami  
bilan 2012-yil 19-dekabrdan ro'yxatga olingan.

Gazeta oyning oxirgi haftasida "NISO POLIGRAF" MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.  
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz – 1.

Hasan ABDUNAZAROV

O'zbekiston Badiiy Akademiyasining Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniyatira san'ati muzevida rassom Saida Jalilova ijod namunalaridan tashkil topgan "Parvoz" nomli ko'rgazma tashkil etildi.

Rassom Saida 2013-2019-yillarda K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida bakalavr va magistratura bosqichida ta'lim oldi. Ta'lim jarayonida darslarni o'zlashtirib, o'z ustida ishladi. Tanlagan sohasi bo'yicha izlandi. Kitoblar o'qidi, tarixni o'rgandi.

Respublikamizda o'tkazilayotgan ko'rik tanlovlari, ko'rgazmalarda ishtirok etib, diplomlar, faxriy yorilqlar bilan taqdirlandi.

Ekspozitsiyada uning "Sevishganlar", "O'zbek ayollar", "Hosil bayrami", "Choyxona", "Mening qishlog'mim" Alisher Navoiy va Abdulla Qodiriy asarlariga illyustratsiyalar, "Bolalik xotiralarim", "O'zbek xalq ertaklari", "O'zbek xalq dostoni" turkumidagi qator ishlar hammasi 40 dan ortiq ijod namunalari o'rinn olgan. Ular san'at murxislari befarq qoldirmaydi.

## KARVON SAROYDA KO'RGAZMA



Poytaxtimizdagagi IKUO Xirayama xalqaro madaniyat karvon saroya o'zbek sopol o'yinchoqlari va hushtaklariga bag'ishlangan "Hamro buvi ertaklari" nomli ko'rgazma ochildi.

Ma'lumki mamlakatimizda qadimdan to bugunga qadar sopol buyumlar, shuningdek o'yinchoqlar tayyorlash an'anaga aylangan. Bu sohaning markazlaridan biri Vobkent yaqinidagi Uba qishlog'i bo'lib, mohir ustalari bilan mashhur bo'lgan. Hamrobibi Rahimova va Fatxullo Sa'dullayevlar hushtak va sopol o'yinchoqlar tayyorlash bilan mashhur bo'lishgan. Shuning uchun ham, ko'rgazmaning nomi ramziy ma'noda "Hamro buvi ertaklari" deb nomlandi.

Ekspozisiyadan Xalqaro madaniyat karvon saroyining arxealogiya fondi eksponatlari O'zbekiston Badiiy akademiyasining badiiy ko'rgazmalar zali fondi va shaxsий kolleksiyalarda saqlanayotgan 50 dan ortiq sopol o'yinchoqlari va bugungi kunda ushbu an'analarni davom ettirib kelayotgan g'ijduvonlik Dilnoza Narzullayeva, samarcandlik Dilorom Muxtorova, buxorolik Dilnoza Karimova va boshqa ustalarning ijodli ishlari o'rinn olgan.

Katta zalda 30 nafardan ortiq ustalarning har xil yog'ochdan ishlangan shaxmat doskalari, turli xil sozlar devorlarga ishlanadigan changlar na'munalari o'rinn olgan.